



**TIQXMMI**

Тошкент Ирригация ва Қишлоқ Хўжалигини  
Механизациялаш Мухандислари Институти



**YRB**

YER RESURSLARINI  
BOSHQARISH FAKULTETI



**G va GI**  
GEODEZIYA VA  
GEOINFORMATIKA

**“Замонавий геодезик асбоблар” фанидан**

## **4-мавзу: Замонавий рақамли нивелирлар**



**Маъruzachi: доцент Инамов Азиз Низамович**

**Trimble**

\*\*\*\*\*

**IAN**

\*\*\*\*\*

**Nivelir**



# **REJA:**



**1.**

**Zamonaviy raqamli nivelir turlari**

**2.**

**Zamonaviy raqamli nivelirlarning tuzilishi**

**3.**


**Zamonaviy raqamli nivelirlarni qo'llash sohalari**

Keyingi yillarda yuqori aniqlikdagi nivelirlarlarning yangi turi – elektron raqamli invelirlar ishlab chiqildi va ular ishlab chiqarishda keng qo'llanilmoqda. Bularga misol qilib Dini 11, Dini 21, Carl Zeiss, Dini 12, Dini12T, Dini22 Trimble, DNA03, DNA10 Leica va boshqa raqamli nivelirlarni keltirish mumkin.



An'anaviy nivelilardan raqamli niveliqlar elektronika bilan jihozlanganligi va maxsus ish dasturlari bilan ta'minlanganligi farq qiladi. Bu esa dala o'Ichash ishlarini va natijalarini ishlab chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi, jumladan:

- shtrix – kodli niveler reykasi bo'yicha sanoq olishini avtomatik ravishda bajarishi;
- o'Ichash natijalariga ko'rish trubasi vizir o'qining silindrik adilak o'qiga parallel emasligi hamda yer egriligi va refraksiya holatlari uchun tuzatmalarni avtomatik ravishda kiritish;
- niveler bilan reyka orasidagi masofa 100 m gacha bo'lganda gorizontal qo'yilishni 25 mm gacha aniqlikda avtomatik o'Ichashi;
- o'Ichash natijalarini avtomatik ravishda ichki yoki tashqi yodlash moduliga yozish;
- nivelerlash yelkalarini tengligi va nisbiy balandlik o'Ichash natijasini avtomatik tekshirib borish;
- nuqtalar balandligini tabloga chiqarish;
- o'Ichangan ma'lumotlarni yozib saqlash uchun xotira kartasidan foydalanish;
- asbobni boshqarish jarayoni qulayligi, shuningdek undan foydalanishni o'zlashtirib olish osonligi.



DialogID: 0



 Trimble



<0>



<space>



Dini 11 va Dini 21 raqamli niveler bilan 1 km yo'lni to'g'ri va teskari yo'naliishlarda invar reyka orqali 0,3 mm aniqlikda, oddiy buklama reyka qo'llab esa 1 mm aniqlikda o'Ihash mumkin. Bekatda turib 2,5 m dan 100 m gacha masofadagi nuqtalar 4 soniyada o'Ichanadi. Nivelirda o'rnatilgan kompensatorlarni ishlash chegarasi 151 ga teng. Asbobda gorizontal doira o'rnatilgan bo'lib, uning bo'lak qiymati 10 ni tashkil qiladi.

Nivelirda o'rnatilgan dastur alohida o'Ihash, kayta o'Ihash, o'rtadan va oldinga nivelerlash, rejlash ishlari va niveler yo'llini tenglash kabi jarayonlarni bajarishini ta'minlaydi. Reykadan olingan sanoqlarni niveler xotirasiga yozib saqlash yoki asbob displayi(ekrani)dan o'qib jurnalga yozish mumkin.

Oxirgi yillarda Dini rusumli raqamli niveler Trimble firmasi tomonidan Din 12, Dini 12 T va Dini 22 nomlanib ishlab chiqarilmoqda

## 2.

# Zamonaviy raqamli nivelirlarning tuzilishi

Trimble Dini avtomatik raqamli nivelirlar oddiy va unumli ishlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ko'pincha balandlik asoslarini barpo etishda va injenerlik geodezik masalalarni echishda qo'llaniladi.

Trimble Dini raqamli nivelirlarni afzalligi:

- katta ekran;
- asbob bilan ishlashda boshqarishni osonligi;
- o'lchangan ma'lumotlarni yozib saqlash uchun xotira kartalar;
- o'lchashlarni bajarishda vaqt ni tejash;
- shtrix-kodli reykalarni tanlash imkonligi;

Etarli aniqlikda masofani o'lchash qobiliyati niveler yo'llarda oldi va orqa elkalarni tez muddatda tenglash imkonini beradi. Bu esa elkalarni maksimal uzunligini oshmasligi, shuningdek ishonchli natijalari bilan ta'minlashga va xatolar tarqalishini minimallashtirishiga sabab bo'ladi.



Ko'pincha joyning sharoiti va boshqa to'siqliklar tufayli niveler reykalarning ko'p qismini ko'rish qiyin bo'ladi, lekin Dini nivelerlari bilan o'Ichashlarni bajarish uchun faqat reykaning 30sm uzunligini ko'rinishi kifoya qiladi.

Dini 12 va Dini 12 T nivelerlari yuqori aniqlikda nisbiy balandliklar va masofalarni esa aniq elektron o'Ichashlar orqali bajarishga mo'ljallangan. Invar reykalar bilan o'Ichashlarni bajarishda 1km ikkilangan niveler yo'lda o'rta kvadratik xatosi bor yo'g'i 0,3 mmni tashkil qiladi, oddiy niveler reykalar bilan ishslashda esa 1,0 mm.

Dini 12T niveleri qo'shimcha elektron gorizontal doira bilan jihozlangan. Ushbu niveler bilan 3ta o'Ichashlar turi: nisbiy balandlik, masofa va gorizontal burchaklarni bajarish mumkin. Burchaklar 6" aniqligi bilan o'Ichanadi.

Dini 12 va Dini 12T nivelerlari yordamida niveler yo'llarni o'tkazishda bevosita dalani o'zida ham o'Ichash hamda tenglash ishlarini bajarish mumkin.

### 3.

## Zamonaviy raqamli nivelirlarni qo'llash sohalari

Dini 22 raqamli nivelir nisbiy balandliklarni o'chanadigan va nazorat qiladigan injenerlar uchun mo'ljallangan.Ushbu nivelir bilan 1 km ikkilangan nivelir yo'li uchun o'rta kvadratik xato buklanadigan reykalari bilan 1,3 mm, invar reykalari bilan esa-0,7 mm ni tashkil qiladi.

**Dini raqamli nivelirlarni qo'llash sohalari:**

- nishabliklarni aniqlash va profillarni tuzish uchun tezkor nivelir yo'llarni o'tkazish;
- cho'kish zonalarni s'yomka qilish;
- temir yo'llar bo'ylab tezkor nivelir yo'llarni o'tkazish;
- avtomobil yo'llarni nivelirlash;
- uzanli s'yomkalarni bajarish;
- yuzani nivelirlash.

Trimble Dini(AQSH) va DNA (Shveysariya) raqamli nivelirlarni texnik tavsiflari 1 jadvalda keltirilgan.

<b>Texnik tavsiflari</b>	<b>Dini 12</b>	<b>Dini 22</b>	<b>DNA 03</b>	<b>DNA 10</b>
O'Ichash aniqligi				
<b>1. Nivelirlash:</b>				
1 km yo'lda o'rta kvadratik xato xatosi				
- shtrix kodli invar reykalarida	0,3 mm	0,7mm	0,3 mm	0,9mm
- buklanadigan reykalarda	1,0 mm	1,3 mm	1,0 mm	1,5mm
<b>2. Masofa (elektron o'Ichashlar)</b>				
Nivelir rejimida (reykani 30 sm segmenti bilan)				
- shtrix-kodli invar reykalarda bilan	20 mm	25 mm		
-buklanadigan reykalar bilan	25 mm	30 mm		
<b>3. Burchaklar</b>				
Tashqi belgilangan doira				
- sanoqlar	1°gacha	1° gacha		
- baholash	0,1° gacha	0,1° gacha		

O'Ichash diapazoni	1,5m-100m	1,5m-100m	1,8m-110m	1,8 – 110m
O'Ichash vaqtি	3 sek	3 sek	3 sek	3 sek
Ko'rish trubasining kattalashtirishi	32 <sup>x</sup>	26 <sup>x</sup>	24 <sup>x</sup>	24 <sup>x</sup>
Kompensator ishlash diapazonи	15'	15'	15'	15'
Diapozon o'rnatish aniqligi	0,2"	0,5"	0,2" 0,5"	0,5"
Display	21 simvoldan 4 qator, grafik qobiliyati			
Klaviatura	22 klavish, kontekstli funksional klavishalar (menyu va dialoglar, muloqotlar)			
O'Ichash dasturlari standartlari	Bir necha o'Ichashlar, oraliq vizirlash bilan yo'llarni o'tkazish, yuza nivelirlash. Balandliklarni joyga ko'chirish.			

Ma'lumotlarni yozish xotirasi	PCMCIA kartasi (SRAM)	2200 qator ma'lumot uchun o'rnatilgan	PCMCIA kartasi (SRAM)	
Quvvatlash mansabi	NiMH batareya kompreksi: 6V, 1.1Ach zaryadlanadigan, zaryadlash va 1 soat			
Batareyaning ishlash vaqtি	3 kun	1 xafта	3 kun	1 xafта
Ishlash harorati		-20° S dan	+50° S dan	
Vazni (faqat asbobning)	3,5 kg	3,2 kg	2,8 kg	2,8 kg



# ЭЪТИБОРИНГИЗ УЧУН РАХМАТ



[hexinsurvey.en.alibaba.com](http://hexinsurvey.en.alibaba.com)